NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

MAQOLALAR TO'PLAMI

MILLIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

“YOSHLAR VA TA’LIM: INNOVATSION YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

SMART ACCESS

YO'NALISHLAR

1. Tabiiy fanlar sho‘basi
2. Tibbiyot va farmatsevtika fanlari sho‘basi
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sho‘basi
4. Aniq fanlar sho‘basi
5. Filologiya fanlari sho‘basi

O'TKAZILISH SANASI

15.05.2026 — 15.05.2026

CONFERENCE.NIUEDU.UZ

TASHKILIY QO'MITA

TASHKILIY QO'MITASI

Familiya, ismi, sharifi	*Ilmiy darajasi, unvoni*	Lavozimi
Gulbonu Kuvatova Murodullayevna	--	Lider yoshlar va ayollar markazi rahbari
Yusubov Jaloliddin Kadamovich	*Falsafa fanlari doktori (DSc), professor*	“Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zosi.
Chulliyev Suhrob Rabbonaqulovich	*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa (PhD)*	“Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zosi.
Boboyeva Feruza Azimjonovna	*Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*	NIU
Abdullayeva Ruxsora Sobirovna	*PhD*	Toshkent davlat transport universiteti “Ilmiy nashrlar bilan ishlash” bo’limi boshlig’i
Shodiyev Ne'matjon Sadirovich	*Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*	Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar" bo'lim boshlig'i
Narbayeva Kanimgul Usarovna	---	katta o’qituvchi
Rustam Xayitov Burxonovich	---	katta o’qituvchi

TAHRIRIYAT

Familiya, ismi, sharifi	*Ilmiy darajasi, unvoni*	Lavozimi
Nargiza Buranova	---	Mezon NNT rahbari
Olamgirova Gulshan	---	Navoiy Innovatsiyalar universiteti talabasi

KIRISH SO'ZI

Mavlonov Jurabek Yorqulovich

REKTOR

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI REKTORI, S.F.D, PROFESSOR

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, muhtaram ustozlar, qadrli hamkasblar hamda aziz talabalar!

Hech kimga sir emaski, ko'z o'ngimizda kechayotgan zamonaviy turmush tarzi, yashash muhiti hamda erishilgan natijalar bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida to'plangan amaliy tajribalarning yakuniy mahsuli hisoblanadi. Asrlar davomida inson o'zining intellektual salohiyati, tafakkuri va mehnati orqali muhim ilmiy-texnik kashfiyotlarni amalga oshirib, ularni keng miqyosda amaliyotga joriy etish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlab kelmoqda.

Shiddat bilan modernizatsiyalashib va transformatsiyalanib borayotgan hozirgi davr sharoitida "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tish strategik zarurat va muhim hayotiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda.

Anjuman qatnashchilariga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman va konferensiyada faol ishtirok etib, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari, mazkur mavzuda olib borgan tadqiqotlari yuzasidan tegishli tavsiya hamda xulosalarini berishlarini umid qilaman.

MUNDARIJA

1-SHO'BA: TABIIY FANLAR SHO‘BASI

Raxmatullayeva Mahzuna Abdulatif qizi
BIOTEXNOLOGIYA VA BIOINJENERIYANING QISHLOQ XO‘JALIGI HAMDA SANOATDA QO‘LLANILISHI →

Salimova Sarvinoz Ulug’bek qizi, Yuldasheva Kamola Urol qizi, Bahranova Farangiz Bobomurod qizi
NARKOTIK MODDALAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR →

Ibragimova Aziza Xasanovna
SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH →

Ibragimova Aziza Xasanovna
GLOBAL SUV TANQISLIGI MUAMMOSI VA YECHIMLAR TAHLILI →

2-SHO'BA: TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANLARI SHO‘BASI

Olamgirova Gulshan Saidali qizi
GENETIK KASALLIKLAR VA ULARNING OLDINI OLISH →

Abdiqodirov J.R.
Ichak mikrobiotasining metabolik va immun kasalliklardagi biokimyoviy hamda funksional ahamiyati →

Туйчиева Машхурахон Алишер кизи
Sezuvchan soha: tekshirish usullari, patologiya. Tortilish simptomlari. Meningeal simptomlar. →

Курбанова Сурайё Илхом қизи
РЕПРОДУКТИВ ЁШДАГИ АЁЛЛАРДА БАЧАДОНДАН АНОМАЛ ҚОН КЕТИШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ДИАГНОСТИКА ВА ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ →

Mardonova Shoxista Rustam qizi
“DORI VOSITALARINING SIFATINI STANDARTLASHTIRISH VA BAHOLASH METODLARI” →

3-SHO'BA: IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR SHO‘BASI

Toshbekova Ziyoda Solijon qizi
ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIIY OBRAZNING NAZARIY-ESTETIK TALQINI →

Fayzullayeva Sevara Sayfullayevna
ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI – O‘ZBEK TAXMISNAVISLIGI TARAQQIYOTINING MA’NAVIY-ESTETIK ASOSI →

Muxtorova Aziza Rashitovna
BADIIY PSIXOLOGIZM:NAZARIY ASOSLAR VA ANTIK DAVR AN’ANALARI →

Tursunqulova Yulduz Raxmatulla qizi
FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA TUSH TALQINLARI →

Bozorova Shaxruza
FARZAND TARBIYASIDA OTA- ONANING PSIXOLOGIK USLUBLARI VA ULARNING TA`SIRI. →

Zabixullayeva Vasilabonu, Abduxamitova Diyoraxon, Tohirova Zohida
FRUSTRATSIYA HOLATIDA BOLALARNING IJTIMOY XULQI VA MOSLASHUV STRATEGIYALARI →

ASHRAPOVA ALINA RAVILYEVNA
Ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining ishlatilishi: norasmiy nutqning pragmatik tahlili →

Yunusova Nozanin Akmaljon qizi
Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta’siri: sotsiologik va psixologik tahlil →

Rashidova Baxtigul
Jadid adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodik asoslari. →

Abduvaxabova Dilnoza Nurmaxamatovna, Abdurasulova Dildora Elbek qizi
LINGVOEKOLOGIYA VA EKOLINGVISTIKA TUSHUNCHALARINING FARQLANISHI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI →

Mirzayev Isroil Mustafayevich, Axmadova Ruxshona Vahobjanovna
MOBIL XAVFSIZLIK MUAMMOLARI: ANDROID TIZIMIDA APK VA FAYLSIZ VIRUSLAR TAHDIDI →

Yuldasheva Sarvinoz
MULOQOTNING VERBAL VA NOVERBAL VOSITALARI →

Raxmatullayeva Sadokat Kamuljonovna
Mintaqa transport sohasi holati va uni amalga oshirishda raqamli marketingni joriy qilish mexanizmlarini anketa-so‘rovi usuli orqali baholash →

Qurbanova Dilobar Yakubjabovna
→

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALAR PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA QILISHNING KONSEPTUAL VA ILMIY ASOSLARI

Xasanova Madina, Ibodullayeva Mushtariy
O‘SMIRLARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI →

SAIDOVA MAFTUNA ERGASHOVNA
O‘ZBEK VA INGLIZ BADIIY DISKURSLARIDA GENDER KONSEPTLAR TAHLILI →

Табаков Евгений Сергеевич
O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida biznes samaradorligini oshirish uchun zamonaviy baholash va tahlil usullaridan foydalanish →

Alenova Mehriniso Urazbayevna
O’QUVCHILARDA HISSIY HOLATLARINI TADQIQ QILISH USULLARI →

Gulnoza Sharafova
QADRIYATLARNI IFODA ETGAN HUJJATLI KINO →

Рафикова Руфина Рафиковна
Rus tili grammatikasini interaktiv metodlar orqali o‘zlashtirish samaradorligini oshirish →

Yuldashova Shohsanam Baxriddinovna
SANOAT SOHASIDA ISHLOVCHI XOTIN-QIZLARDA EMOTSIONAL CHARCHOQ (BURNOUT) VA UNI OLDINI OLISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI →

Sevinova Diyora Uyg’un qiz
SHAXMAT TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI →

Saidodilkhon Rahmatkhonov
SUN’IY INTELLEKT RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA →

Safarova Nasiba Normatovna
SYURREALIZM FIDOYISI: SAN’AT VA ONG OSTI OLAMI →

Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI FARAVONLIGINI TA’MINLASH UCHUN XIZMATLAR KO‘RSATISHNING ZAMONAVIY INNOVATSION USULLARI →

Алиева Эльнара Аметовна
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH ZARURATI →

Maxammatova Marjona Sheraliyevna
TA’LIM JARAYONIDA YOSHLARNI SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHLARINI TOG’RI TASHKIL ETISHGA O’RGATISH →

Usmanova Sevinch Uktam qizi
TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROT TIZIMLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI →

Pardayeva Shodiya
TOHIR MALIK DETEKTIV ASARLARIDA SYUJET VA KOMPOZITSIYA MASALASI →

Davlatova Ra’no Haydarovna, Aliqulova Dilfuza Otabek qizi
TO‘LIQSIZ OILADA TARBIYALANAYOTGAN 5–7 YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI →

Negboyeva Nilufar
TURIZM SOHASIDA YOSHLAR TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR →

Saidvaliyeva Dilafruz Ravshanovna
Talabalarda metakognitiv kompetensiyani shakllantirishning psixolingvistik asoslari →

Narbayeva Kanimgul
Tandirga non yopish ham xalqimiz qadriyatidir →

Алиева Эльнара Аметовна
ZAMONAVIY SHAROITDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MAHSULOT DIFFERENSIATSIYASINING ROLI →

Mirzayev Isroil Mustafayevich, Latipova Sabrina Rustamjon qizi
Zamonaviy web dizaynda UI/UX tamoyillarining ahamiyati →

4-SHO'BA: ANIQ FANLAR SHO‘BASI

Eshqulova Go‘zal Ennazarovna
MAKTAB TA’LIMIDA MATEMATIKA O‘QITISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI →

Amirova Dilnoza Akbar qizi
TURLI MATERIALLAR UCHUN ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASINI SILINDRIK KOORDINATALAR SISTEMASIDA SONLI YECHISH. →

1-SHO'BA

TABIIY FANLAR SHO‘BASI

СЕКЦИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

SECTION OF NATURAL SCIENCES

GLOBAL SUV TANQISLIGI MUAMMOSI VA YECHIMLAR TAHLILI

Ibragimova Aziza Xasanovna

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada suvdan samarali tarzda to‘g‘ri foydalanish, uni isrof qilmaslik, suv tanqisligining sabablari, uning turli hududlardagi ta’siri va bu muammoni hal etish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga suv tanqisligini oldini olish, suvdan to‘g‘ri foydalanish, qug‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Suv tanqisligi, aqlli suv, ekotizim, SGH tashkiloti, ekologik toza, sug‘orish tizimlari, muzlik suvi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного и рационального использования водных ресурсов, необходимость предотвращения их нерационального расходования, основные причины дефицита воды, а также его влияние на различные регионы. Кроме того, предлагаются практические меры и рекомендации по снижению и предотвращению водного дефицита, обеспечению правильного использования воды и борьбе с засухой.

Ключевые слова: Дефицит воды, интеллектуальное управление водными ресурсами, екосистема, организация СГХ, екологически чистый, оросительные системы, ледниковая вода.

Abstract: This article examines the issues of efficient and rational use of water resources, the need to prevent water wastage, the main causes of water scarcity, and its impact on different regions. It also presents practical measures and recommendations for reducing and preventing water scarcity, ensuring proper water use, and combating drought.

Key words: Water scarcity, intelligent water management, ecosystem, SGH organization, environmentally friendly, irrigation systems, glacial water

Suv butun jahon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va atrofmuhitni muxofaza qilishning asosiy omillaridan biridir. Yer yuzidagi hech bir tirik organizm suvsiz yashay olmaydi, chunki undagi to’qimalarning asosiy qismini suv tashkil qiladi. Masalan, 18 yoshdan 50 yoshgacha bo’lgan kishilarning organizmida gavda og’irligining 61% ni suv tashkil qiladi. Odam tanasidagi suvning 70% hujayra protoplazmasini, 23% to’qimalararo suyuqlikni, qolgan 7% esa qon plazmasini hosil qiladi. Organizmda suvning bir yo’la 10% ga kamayishi inson tueli kasalliklarga uchrashiga olib keladi, uning 20-25% ga kamayishi esa kishini halok bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Suv ayniqsa suvda yashovchi hayvonlar tanasida ko’pdir. U, masalan, meduzada gavda og’irligining 99,7% ni tashkil qiladi.

Mana shu ma'lumotlarning o’zigina «suv – hayot manbaidir» degan iboraning qanchalik haqqoniyligini ko’rsatib turibdi. Odam organizmi o’z hayotiy jarayonlarini amalga oshirishi uchun sutkasida o’rtacha 2,5 l. suvni qabul qiladi va uni o‘z to‘qimalaridan o’tkazib, chiqarib yuboradi.

Tirik organizmlarda kechadigan barcha hayotiy jarayonlar suvning ishtirokida suyuqlik muhitida kechadi. Chunonchi, qabul qilingan ozuqa mahsulotlari hamda kislorodning parchalanishi va ularning to’qimalarga yetkazib berilishi hamda to’qimalarda hosil bo’lgan chiqindilarning tashqi muhitga chiqarib tashlanishi kabi murakkab biokimyoviy va biofizik jarayonlar suv yordamida amalga oshadi.

Yerda hayotning asosi yashil o’simliklarda kechadigan fotosintez jarayonidir. Bu jarayonda suv asosiy xomashyo vazifasini o’taydi. Fotosintezda quyosh nuri ta'sirida suv vodorod va kislorodga ajraladi. Ajralgan kislorod erkin molekula holda tabiatga chiqariladi, vodorod esa karbonat angidrid bilan birikib, katta ichki energiya zapasiga ega bo’lgan organik birikmalarni hosil qiladi. Shu asnoda tirik mavjudotlar uchun oziqlanish va nafas olish sharoiti yaratiladi.

Suvsiz hayot yo‘q ekan, uni insoniyat ko‘z qorachig‘idek asrashga majburdir. Sayyoramizdagi toza ichimlik suvi zaxirasini asrash, undan oqilona foydalanish, sanoat va ishlab chiqarish jarayonini tabiatga zarar yetkazmaydigan tarzda “Ekologik toza” innovatsion uslublar bilan yo‘lga qo‘yish va turli ta'lim usullaridan foydalanib, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Muammolarning qo‘yilishi. Dunyo mamlakatlarida bugungi kunga kelib takrorlanib turuvchi qurg‘oqchilikva ichimlik suvi yani chuchuk suv zaxiralari kamayibn borishi kabi dolzarb muammolarga duch kelmoqda. Jamiyat esa suv muammolarini hal qilish va suv taqchilligini kamaytirish uchun qat’iy choralarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqda. Suvning tabiat va inson hayotidagi o‘rniga kelsak, yashash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish,sog‘liqni saqlash, munosib hayot kechirish va insoniyat rivoji uchun zarur asosiy resurs hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda suvni ishlatilish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Global tanqislik-taxminan 2,5 milliard odam suv tanqisligi yuqori bo‘lgan mintaqalarda yashaydi. Zero, suvning katta zaxiralari bo‘lgan taqdirda ham, taqsimot yoki undan foydalanishning iqtisodiy va texnik imkonsizligi tufayli tanqislik bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, sifatli ichimlik suvi haqida gapiradigan bo‘lsak, tanqislikning kuchayishi ko‘p hollarda iste'mol qilinadigan suvning juda kamligidandir. Venesuela va Peru kabi chuchuk suv zahiralariga ega bo‘lgan mamlakatlarda ular tanqislikning jiddiy muammolariga duch kelishmoqda.

Xulosa. Yer yuzi aholisini to‘ydirish suvga ortib borayotgan ehtiyoj hisob kitoblari suv-yer resurslari va ekotizmlarni integratsiyalashgan boshqaruvning kelajakdagi muammolari ko‘lamini o‘zgarayotgan dunyoda yashashga puxta tayyorlanish zarurligidan dalolat bermoqda. Bugungi kunda sayyoramizning 8mlrd aholisi suvdan qanday foydalanish borasida yakdil qarorga kelishi zarur. 2050-yilga kelib o‘sib borayotgan aholining ehtiyojlarini ta’minlash uchun suv asosiy o‘rinni egallaydi. Global

bo‘lgan suv muammosi masalalariga oqilona yechim topish uchun avvalo birdamlik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. “Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish”. F.A.Bazayev, B.S.Serikbayev, R.X.Bazargov, S.B.G‘ulomov, S.N.O‘ribnayev, N.O.Shaymov, A.B. Mamasoliyev. Elektron darslik.2019.

© Ibragimova Aziza Xasanovna, 2026. CC BY 4.0

SERTIFIKAT

QR-kodni skanerlash orqali sertifikatni yuklab oling

Ibragimova Aziza Xasanovna

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

conference.niuedu.uz

© 2026